

## BOSHLANG'ICH TA'LIM: XALQARO BAHOLASH DASTURLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7663152>



ELSEVIER



Received: 19-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023

### Maxtuma Fazliddinovna Qurbanova

"Pedagogika va Iqtisod" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Angren Universiteti,  
O'zbekiston Republikasi.



**Abstract:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'limgaktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro tadqiqotga tayyorlash masalalari haqida ma'lumotlar va shuningdek, bu boroda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar ham ko'rsatib o'tilgan.

**Keywords:** PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro baholash dasturi, xorijiy tajribalar, ta'limgaktablar, o'quvchi, o'qituvchi.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

## PRIMARY EDUCATION: INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS

### Makhtuma Fazliddinovna Kurbanova

Senior teacher of the "Pedagogy and Economics" department.

Angren University,  
Republic of Uzbekistan.



Received: 19-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023

**Abstract:** This article provides information on the preparation of primary school students of general secondary schools for PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS international research, as well as the work to be done in this regard. passed..

**Keywords:** PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS international assessment program, foreign experiences, assessment of educational quality, student, teacher..

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Ayni davrga kelib globallashuv jarayoni jamiyatning barcha sohalarida avj olmoqda va o'z navbatida, fan va texnikaning rivojlanishiga, iqtisodiyotning yuqori darajada o'sishiga hamda ta'limgaktablarning sohasidagi integrasiya jarayoning yanadachuqlashishiga olib kelmoqda. Ta'limgaktabning sifati, uning kompetentligi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili sifatida raqobatga chidamli malakali mutaxassislarini tayyorlash globallashuv davrining muhim xususiyatlari aylandi. Shuningdek, globalashuv jarayoni kelajak egalari sifatidayosh avlodni tayyorlashda dunyo mamlakatlarining maqsadlarini umumiylashishiga olib keldi. Dunyo davlatlari ta'limgaktabning jamiyat taraqqiyoti va inson rivojlanishidagi muhim o'rmini e'tiborga olib, ta'limgaktabning sifatiga e'tibor qaratdi.

Ayni davrda ta'limgaktabning sohasida sifat tushunchasi global fenomen sifatida ko'rilmoxda. Yoshavlodning intelektual faolligini shakllantirish nafaqat muayyan bir mamlakat balki xalqaro hamjamiat uchun ham muhim masalaga

aylandi. Shuning uchun ta'lim sifati, ta'lim sifatini baholash kabi masalalar bilan ko'pgina xalqaro tashkilotlar davlatlarida ta'lim sohasida baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, PIAAC, ICCS, SITES, IALS, ALL kabi xalqaro baholash dars turlari amaliyotga tatbiq etilgan. Zamonaviy globallashuv va o'sib borayotgan xalqaro raqobat sharoitida "Har tamonlama rivojlanish konsepsiysi" yosh avlodning bilim darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son qaroriga muvofiq Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil qilish, xalqaro aloqalarni o'rnatish o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida qaror qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda Ta'lim inspeksiyasi deb ataladi), Xalq ta'limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda Moliya vazirligining quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni (keyingi o'rinlarda xalqaro tadqiqotlar deb ataladi) tashkil etish:

- Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun;
- Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;
- The Programme for International Student Assessment (PISA) – 15 yoshli o'quvchilarining o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;
- The Teaching and Learning International Survey (TALIS) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarining ish sharoitlarini o'rganish uchun kabi xalqaro baholash dasturlari taahkil etilmoqda.

Xo'sh, Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS), Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS), The Programme for International Student Assessment (PISA), The Teaching and Learning International Survey (TALIS) kabi xalqaro baholash dasturlari o'zi qanday baholash turi? Bu kabi xalqaro tadqiqotlar mamlakatimiz ta'lim tizimida qanday ahamiyati bor? Bizga shu kabi xalqaro baholash dasturlari nima uchun kerak degan savollar tug'iladi.

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) ning mazmun va mohiyati. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study-Xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi taraqqiyot) bu 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunishdarajalarini baholab beruvchi xalqaro qiyosiy baholash

mezonidir. PIRLS- (inglizcha – Progress in International Reading Literacy Study – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlarda boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarining har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta, bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta'lim institutlari assosiatsiyasi (IEA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosasiyasi (IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Chestnut Hill (Maccachucetc, AQSH) Boston kollejiga yuklatilgan.Tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi.Ilk bora tadqiqot 2001-yilda o'tkazilgan.Tadqiqot har 5 yilda bir marotaba o'tkaziladi.PIRLS tadqiqotda ishtirok etuvchi turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfga maktab o'quvchilarini qabul qilish yoshi turlicha. Ko'plab mamlakatlarda maktabga olti yoshdan qabul qilishadi va to'rtinchisinfni 10.5 yoshda tugatishadi.Biroq, Angliya, Yangi Zelandiya, Trinidad Tobagoda- maktabga 5 yoshdan qabul qilishadi va ahamiyatli jihatni PIRLS xalqaro tadqiqotida ushbu mamlakatlarning 5-sinf o'quvchilari xalqaro tadqiqotda ishtirok etishadi.Shvesiya, Daniya va ko'plab Sharqiy davlatlarda- maktabga 7 yoshdan qabul boshlanadi va ushbu mamlakatlarning o'quvchilari qolgan tengdoshlariga nisbatan eng katta (10,7-10,9) yoshni tashkil etadi.

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS). TIMSS xalqaro tadqiqotining asosiy maqsadi boshlang'ich va o'rta maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim sifatini qiyosiy baholashdan iborat.Tadqiqotda 4-8-sinf o'quvchilarining ta'limdagi yutuqlari, jumladan, ularning nafaqat bilim va ko'nikmalari, balki fanlarga bo'lgan munosabati, qiziqishlari va o'qishga bo'lgan motivatsiyasi ham baholanadi. Tadqiqot shunday tuzilganki, uning natijalari 4-sinf o'quvchilari 8-sinfga o'tganlarida, har 4 yilda ishtirokchi mamlakatlarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim tendentsiyalarini kuzatib boradi. Shunday qilib, boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilarining ta'lim yutuqlari, shuningdek, boshlang'ich maktabdan o'rta maktabga o'tish davrida matematika va tabiatshunoslik ta'limidagi o'zgarishlar nazorat qilinadi.

Tadqiqotning har to'rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda ishtirok etish global miqyosda mamlakatimiz ta'lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu dasturlar O'zbekiston Respublikasi milliy baholash

tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta'lism sifatini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, adabiyotlarda keltirilishicha, kreativlik mashq qilish yoki bilim olish bilan orttirilishi mumkin. Xalqaro baholash dasturida o'quvchilarni kreativ fikrlashni baholash biror ishni amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan tug'ma qobiliyatga ega bo'lish kreativlikka oid berilgan topshiriqlarga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning kreativ fikrlashiga imkon beradigan o'zgaruvchan iqtidorlariga katta e'tibor qaratadi. Bunday turdag'i kreativ fikrlash nafaqat san'at yoki ijodiy bayon kabi o'quvchilarning ichki dunyolarini ifoda qilishlarini talab etadigan ilmiy kontekstlarda, balki g'oyalar umumlashuvi keng miqyosdagi ijtimoiy muammolar va murakkabliklarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar bilimini baholashning Xalqaro tadqiqotlaridan yana bir muhimi TIMSS dasturidir. TIMSS - ham jahon mamlakatlari ta'lism tizimida keng tadbiq etilmoqda. TIMSS dasturi Ta'lism sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) testi birinchi bo'lib 1995 yilda amalga oshirilgan. Uning maqsadi matematika va tabiiy fanlar sohasida o'qitish sifatini qiyosiy tahlil qilish edi. 1995 yilda uchinchi, to'rtinchi, ettinchi, sakkizinchisi va o'n birinchi sinf o'quvchilari o'qishga taklif qilindi. Bugungi kunda unda faqat to'rtinchi va sakkizinchisi sinf o'quvchilari qatnashmoqda. Mazkur tadqiqotda o'quvchilar orasida matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ta'larning sifati, darajasi, fanga bo'lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. Tadqiqotning yana bir afzal tarafi shuki, o'quvchilar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari orasida qo'shimcha so'rovnomalari o'tkazadi va fan sohasida to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablarni aniqlaydi, tahlil qilinadi va shu omillar yechimi yuzasidan ish olib boriladi. Har 4 yilda bir marotaba olib boriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, Xalqaro baholash dasturi o'quvchi va talabalarni nafaqat bilimli qilibgina qolmay, kelajakda hayot yo'lida, kundalik turmush jarayonida uchraydigan muammolarni qiyinchiliklarsiz hal etishga, faqatgina o'zi tanlagan bir yo`nalishda kasb egasi bo'libgina qolmay, aqliy salohiyatidan kelib chiqib bir vaqtning o'zida turli xil hunar egallashiga zamin yaratadi.

## REFERENCES:

59. Mirxalilova, N. A., & Davlatova, M. A. (2022). TIMSS xalqaro baholash dasturida miqdor tushunchasi va uning turlari. *Academic research in educational sciences*, 3(9), 282-285.

60. Davlatova, M. A. (2022). Iqtisodiy va statistik masalalarni yechishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirish. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 309-314.
61. Matyokubova, S. (2022). Effectiveness of using authentic materials in teaching foreign languages. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 6(6), 308-317.
62. Матёкубова, Ш. А. (2021). Халқаро ва миљлий сертификат имтихонлариға таёрланиш жараённан замонавий технологияларнинг үрни. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 2), 221-225.
63. Матёкубова, Ш. А. (2020). Альтернатива узбекских и английских пословиц. *Экономика и социум*, (1), 576-578.
64. Matyoqubova, S. A. (2020). O'zbek xalq maqollarini va ingliz xalq maqollarining tarbiyaviy ahamiyati. *Academic research in educational sciences*, (3), 911-915.
65. Matyakubova, S. A. (2018). Educational technologies in English language lessons. *Экономика и социум*, (10), 56-57.
66. Matyakubova, S. A. (2018). Phonetic variability. *Экономика и социум*, (10), 54-56.
67. Kadirova, O. K. (2022). Linguopoetics is an Important Research Field of Linguistics. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 10(12), 756-759.
68. Kadyrova, Z. Z.; Kadyrova, O. Kh. (2022). Lithosonyms Used in the Works of Alisher Navoi. *NeuroQuantology*, 12(20), 1907-1913.
69. Kadyrova, O. K. (2021). Motivational basis for the formation of eastern and western literature Мотивационная основа формирования восточной и западной литературы. *Журнал филологических исследований*, 6(3), 17-22.
70. Kadyrova, O. (2021). Information and communication technologies in the process of teaching foreign languages as the basis of an innovative approach to learning. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 649-651.
71. Mamanovich, A. L. (2022). Pedagogical properties of environmental education and education in educational institutions. *Open Access Repository*, 8(12), 624-627.
72. Mamanovych, A. L. (2022). Ecological educational system the need to improve theoretical foundations and methodological foundations. *Academica Globe: Inderscience Research*, 3(12), 135-139.
73. Mamanovych, A. L., & Sharofiddin o'g'li, B. S. (2022). Environmental behavior change and students'environmental attitude. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 3(12), 140-144.

74. Абдуназаров, Л. М. (2018). Экология методологияси ва унинг миллий хусуситялари. *ЎзМУ хабарлари*, 1(4), 26-28.
75. Abdunazarov, L. M. (2018). Issues on Teaching Ecology in National Continuous Eeducation. *Eastern European Scientific Journal Germany*, 3(1), 265-270.
76. Абдуназаров, Л. М. (2016). Касбий таълимда экологик ўкув унинг таъминоти ва амалга жорий этиш. *Кадрлар тайёрлаши тизимида ўрта маҳсус касб-хунар таълимининг ўрни ва ахамияти*, 1(1), 31-33.
77. Давлатова, М. А. (2022). Формирование логического мышления у учащихся начальных классов при решении экономических и статистических задач. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 194-198.
78. Холмуминов, АА, Ходжаева, НК, Шакарова, ДШ, Шерматов, БН, Хаккулов, ЖМ. (2017). Нановолоконные нетканые материалы полимеров с поверхностью-активными свойствами. *UzMU*, 2(2), 257-263.
79. Холмуминов, АА, Хаккулов, ЖМ, Ходжаева, НК, Шакарова, ДШ, Шерматов, БН (2017). Формирование биоактивного нанокомпозита на поверхности металлического носителя. *UzMU*, 2(2), 252-257.
80. Сейитниязов, К. М. (2022). Традиционные географические названия. *Экономика и социум*, 11(102), 155-160.
81. Сейитниязов, К. М. (2022). Некоторые вопросы о Антропотопонимах. *Международная конференция*, 1(4), 4-8.
82. Сейитниязов, К. М. Некоторые вопросы о стандартизации топонимов Каракалпакии. *Международная конференция*, 1(12), 4-9.
83. Камбарова, Ш. А., & Абуназаров, Л. М. (2016). "Сплошная коллективизация": понятие и меры по её проведению в средней Азии. *современные подходы к трансформации концепций государственного регулирования и управления в социально-экономических системах* (pp. 89-91).
84. Kadirova, Z. Z. (2022). Lithosonyms used in the works of Alisher Navoi. *NeuroQuantology*, 10(10), 1907-1913.
85. Kadirova, Z. Z. (2022). Stable compounds in the works of Alisher Navai (example of periphrases). *NeuroQuantology*, 10(1), 1899-1906.
86. Мирсаатов, Р. М., Очилов, О., Абдуллаев, Ж. Э. У., & Кенжаев, А. А. (2019). Устройство для определения шелконосности коконов без их взрезки. *European science*, (6 (48)), 30-36.
87. Очилов, О. (2018). Фотоупругая и ростовая оптическая анизотропия эпитаксиальных пленок редкоземельных ферритов-гранатов. *Вестник науки и образования*, 1(1 (37)), 5-8.